

“Moziyni jonlantirib...” Markaziy Osiyo muzeylari restavratorlari seminari xususida

O‘zbekiston Fanlar akademiyasi O‘zbekiston tarixi davlat muzeyida “Markaziy Osiyo muzeylari restavratorlari” mavzusida seminar-trening o‘tkazildi. Mashg‘ulotlar Chikago universitetining Sharq instituti olimlari Fabio Kolombo, Syuzanna Gensike, Alison Uaytlar tomonidan olib borildi.



Ushbu o‘quv mashg‘ulotlarida Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O‘zbekiston muzeylarida faoliyat yurituvchi restavratorlar ishtirok etib, do‘stona hamkorlik muhitida shisha va sopol buyumlarini qayta tiklash borasida yangi bilimlarni o‘zlashtirdi. Yangi modullar asosida o‘tilgan darslarda soha mutaxassislari O‘rta Osiyo davlatlari muzeylaridagi shisha va sopol buyumlarni dunyoning rivojlangan mamlakatlarning sohaga oid standartlari asosida restavratsiya va konservatsiya qilish bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlarni olishdi.

O'n kun davomida qizg'in bahslar bilan o'tgan seminar-treninglar so'nggida tinglovchilarga o'quv dasturini yakunlagani to'g'risida sertifikatlar topshirildi.





Eng asosiysi, bu kabi o'quv seminarlari tajriba almashish, yangilik olish va tarixni tiklash borasidagi harakatlarga asos bo'lib xizmat qiladi.